

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

¹Sabirova Charosxon Atamamatovna, Urganch innovatsion universiteti "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti, p.f.f.d., (PhD)

²G'aniyeva Adiba Tursinboy qizi, Urganch innovatsion universiteti "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi, UrDU mustaqil tadqiqotchisi

DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS THROUGH THE PEDAGOGICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS

¹Sabirova Charoskhan Atamamatovna, associate professor of the Department "Pedagogy and methods of primary education", Urgench innovative university, (PhD)

²Ganiyeva Adiba Tursinboy qizi, teacher of the Department of "Pedagogy and methods of primary education", Urgench innovative university, independent researcher of UrDU

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

¹Сабирова Чаросхон Атамамамовна, доцент кафедры "Педагогика и методика начального образования" Ургенчского инновационного университета, д.ф.п.н., (PhD)

²Ганиева Адиба Турсинбой кызы, преподаватель кафедры "Педагогика и методика начального образования" Ургенчского инновационного университета, независимый исследователь УрГУ

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda o'qituvchining kreativ fikrlash sifatleri, o'quvchilarga ta'lim berishda qo'yiladigan talablar va o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish yo'llari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, intellektual salohiyat, qobiliyat, iste'dod, bilim, malaka, metod, jismoniy mashqlar.

Abstract: This article describes the effective organization of the educational process through the educational and educational views of Eastern thinkers and the qualities of the teacher's creative thinking, the requirements for teaching students and ways to develop creative thinking in students.

Key words: education, education, intellectual potential, ability, talent, knowledge, competence, method, exercise.

Аннотация: В данной статье рассказывается об эффективной организации образовательного процесса посредством учебно-воспитательных взглядов восточных мыслителей, а также о качествах креативного мышления учителя, требованиях, предъявляемых к обучению учащихся, о путях развития креативного мышления у учащихся.

Ключевые слова: образование, воспитание, интеллектуальный потенциал, способности, талант, знания, компетентность, метод, упражнение.



¹<https://orcid.org/0000-0003-1801-2117>

¹e-mail: adibaxon97@q.mail.com



KIRISH. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nian yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish uchun millatning ertangi istiqboli, milliy g'ururi, sha'ni va obro'si bo'lgan, uning tarixni o'rganish, undan tegishli xulosalar chiqarish va keyingi hayot yo'lini o'sha boy tajriba bilan bog'lash zamon talabi hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O'zbekiston hududida ming yillar davomida qanchadan qancha davlat, tuzumlar, urf-odat almashdi. Har bir yangi paydo bo'lgan din, mafkura o'tmish haqida o'ziga mos madaniyat va afsonalar yaratdi, eskilari esa asta-sekin unutilib ketdi. Ammo, bizgacha yetib kelgan rivoyat va afsonalar, shahar va saroy qoldiqlari, ular haqidagi tasavvur xalqimiz o'tmishi buyuk bo'lganidan dalolat beradi. Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi. Shu munosabat bilan sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish va tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida bu davrda yashab ijod qilgan Beruniy, Forobiy, Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning pedagogik qarashlariga nafaqat sharq, balki g'arbda ham millionlab odamlarning diqqatini jalb qilgan. Tarixning har qanday davrida, har qanday jamiyatda, ta'lim va maktab jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik fikr va pedagogika tarixi bu fikrni tasdiqlaydi[2].

Shuning uchun zamonaviy dunyoda ko'plab tadqiqotchilar tarbiya va ta'limni insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilish

vositasi deb bilishadi. Shunga asoslanib, sharq uyg'onish davrida tarbiya tarixi, maktablar, urf-odatlar, an'analar va milliy qadriyatlarni hozirgi mavjud manbalardan foydalanib o'rganish zarur va muhim deb bilamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, sharq uyg'onish davrida tarbiya, maktab va pedagogik tafakkur faqat shu davrning ijtimoiy muhitiga mos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. O'qish va o'qitish ishlari ibodatxonalarda, maktablarda, madrasalarda tashkil etilgan. Tarbiya, maktab va pedagogik tafakkur tarixiga murojaat qilishimizning maqsadi, avvalo, o'sha davr hayotining ijtimoiy-madaniy asoslarini tushunish, ularni taqqoslash va zamonaviy hayot tajribasida topilgan ma'lumotlardan foydalanish hisoblanadi. Shu munosabat bilan, o'tgan asrlarda maktablar va pedagogik fikrning paydo bo'lishining tarixiy asoslari nimadan iborat bo'lganligi va ular jamiyat rivojlanishining yangi davrida qanday bo'lishi kerakligini aniqlash lozim. Bularning barchasini aniq tushunmasdan, kelajakda jamiyatning mavjudligini va xalqning taraqqiyotni tasavvur qilish imkoniyati mavjud emas.

Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish, malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala" asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: "Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi"[4].

“Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilarning haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi”[5].

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritadi, ikkinchi tomondan, o‘sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o‘qitishning kreativ metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g‘oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Beruniy o‘quvchiga bilim berishda va kreativ sifatlarni rivojlantirishda quyidagilarga amal qilish kerak deb ta’kidlaydi:

- o‘quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddan qiyinga qarab borish;
- takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga da’vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko‘zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini o‘qtirgan[7].

Shuningdek, har bir xalqning o‘ziga xos ta’lim usullari, yo‘llari, shakllari borligini ta’kidlash bilan birga har bir xalqning ham o‘qitish tizimi alifbodan boshlanishini ko‘rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o‘qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi.

Sharq mutaffakirlaridan biri Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Bolani maktabda jamoa bo‘lib o‘qishining foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yaxshilanishiga yordam beradi. O‘zaro suhbatda o‘quvchilar bir-biriga kitobdan o‘qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar. Bolalar birga to‘planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do‘stlashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Bilim olishda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Talabaga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir. O‘qituvchining ijodkor bo‘lishi va darsning samarali bo‘lishini ta’minlashi kerak. Shunga ko‘ra Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berishi;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqitira olishi;

- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi zarur, deydi olim[6].

Ibn Sino taʼlimotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u ogʻzaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli koʻrinishdagi suhbatmi, tajribalarni, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boʻlgan.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarning barkamollik sifatlarini egallashlarida mutafakkirlar taʼlimotida ifodalangan gʻoyalarni chuqur oʻrganish va tahlil qilish, undagi ilgʻor maʼnaviy-axloqiy hamda didaktik yondashuvlarni ajratish, tasniflash va ularni muammoli taʼlim texnologiyalari asosida muayyan oʻquv fanlari mazmuni va sinfdan tashqari taʼlim-tarbiya mazmuniga singdirish yoʻllarini koʻrsatish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Uygʻonish davri allomalari tomonidan yaratilgan barkamol avlod tarbiyasiga oid pedagogik qarashlaridan bugungi kunda taʼlim-tarbiya jarayonida muammoli tarzda foydalanishga qaratilgan tadbirlar oliy taʼlim

muassasalari talabalari tomonidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashda koʻmaklashadi, professor-oʻqituvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “Oʻzbekiston”, 2017-y. - 488 b.
2. Abduraxmonov A. Al-Xorazmiy – buyuk matematik. – T.: “Oʻqituvchi”, 1993-y. -87 b.
3. Ajdodlar oʻgiti. Hikoyatlar, hikmatlar, tamsillar (toʻplovchi va izohlar muallifi B.Ahmedov). – T.: Choʻlpon, 1990-y. – 240 b.
4. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. 1 –T., -T.: “Fan”, 1995- yil.
5. Komil inson haqida toʻrt risola (fors-tojik tilidan N.Komilov tarj). -T.: Maʼnaviyat, 1997-y. -280 bet.
6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.: Fan, 1994-y. -135 bet.
7. Ch.A. Sabirova “Principles, Factors, System, Content and Conditions of Moral and Aesthetic Education of Future Teachers with Focus on Personality Improving “Eastern European Scientific Journal”.Germany – 2017. №6.
8. www.ziyounet.uz.

